JIZZAX VILOYATI FORISH TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2021 - yil 21 - dekabr 184-3-53-Q/21 Forish tuman hokimligi

Forish tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari, ichki xo’jalik yo’llari va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transport hodisalarini oldini olish maqsadida sun`iy yo‘l notekisliklarini o‘rnatish to‘g‘risida

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagi “2018-2022 yillarda O`zbekiston Respublikasida yo`l harakati xavfsizligini ta`minlash konsepsiyasi” to`g`risidagi 377-sonli qarori bilan tasdiqlangan hamda 2018-2019 yillarda amalga oshirish bo`yicha “Yo`l xaritasi”da harakat xafvsizligini takomillashtirish va yo`l-transport xodisalarining oldini olish bo`yicha topshiriqlar belgilab berilgan va 2019-yil 9-apreldagi “Yo`l harakati qoidalariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida”gi 292-sonli qarorining ijrosini ta`minlash bo`yicha yo`l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta`minlash borasida sun`iy yo'l notekisliklarni tashkil etish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Forish tumani ichki ishlar bo`limining 2021 yil 01 dekabrdagi 42/1995-sonli taklifi ma`lumot uchun qa`bul qilinsin va maqullansin.

2. Tuman hududidagi davlat, mahalliy va ichki xo`jalik yo`llarida yo`l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida maktabgacha ta’lim muassasalari, o`quv muassasalari, aholi yashash punktlari va ichki xo’jalik yo`llarda yo`l sharoitidan kelib chiqqan holda ilovaga muvofiq sun`iy yo‘l notekisliklari tashkil etilsin.

3. Bunda Yevroosiyo davlatlarining davlat me`yori GOSTR 52605-2006ga

asosan mahalliy ahamiyatga ega avtomobil yo`llari va ichki ko`chalarga, o`quv muassasalari, maktabgacha ta`lim muassasalari oldiga kengligini 40 sm.dan, balandligini 7 sm.dan oshirmasdan, yo`l qatnov qismi kengligida tashkil etishga alohida e`tibor qaratilsin.

4. Tuman yo`llardan foydalanish unitar korxonasi (F.Hakimov), tuman “Obodonlashtirish” boshqarmasi (X.Jo’raqulov) va tuman ichki ishlar bo`limi yo`l harakati xavfsizligi guruhi (V.Xusanov) mahalla fuqarolar yig`ini raislari bilan birgalikda sun`iy yo`l notekisliklarini yo`l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil etish bo`yicha zarur chora-tadbirlarni ko`rsin.

5. Mazkur qaror “Forish tongi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning www.forish.jizzax.uz − rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosari F.Amirov va tuman ichki ishlar bo`limi boshlig`i I.Xadjamqulovlar zimmalariga yuklatilsin.

Туман ҳокими **И.Матиев**

Фориш туман ҳокимининг
2021 йил 21 декабрдаги
184-3-53-Q/21-сон қарорига
1-илова

Bog‘don shaharchasida joylashgan maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari joylashgan ko‘chalarga o‘rnatiladigan sun’iy yo’l notekisliklar joylashuvi dislokatsiyasi

№	MFY nomi	Ko’cha nomi	Oldiga sun’iy notekisliklar o‘rnatiladigan ob’ektlar nomi
1	Oybek MFY	Zafar	33-umumta’lim maktabi
2	Oybek MFY	Zafar	“Lola” MTT
3	Bog‘don MFY	Bog‘don	“Hadicha bonu” MTT
4	Bog‘don MFY	Sh.Rashidov	“Binafsha” MTT
5	Bog‘don MFY	Bobur	“Sultonchalar makoni” uy bog’chasi
6	Bog‘don MFY	Fidokorlar	“G’uncha” MTT
7	O‘zbekiston MFY	Do’stlik	“Boychechak” MTT
9	Amir Temur MFY	Yangiqishloq-Ko’xnabozor yo’li	55-umumta’lim maktabi
10	Amir Temur MFY	Yangiqishloq-Ko’xnabozor yo’li	5-umumta’lim maktabi
11	Amir Temur MFY	Yangiqishloq-Ko’xnabozor yo’li	"Guldasta" MTT
12	O’xum MFY	Mo’la qishlog’i yo’li	46-umumta’lim maktabi
13	Uchma MFY	Deriston qishlog’i yo’li	27-umumta’lim maktabi
14	Bog’don MFY	Fidokorlar	Aholi punkti
15	Oybek MFY	Saxovat	Aholi punkti
16	Bog’don MFY	Fayzobod	Aholi punkti
17	Garasha MFY	Koriz qishlog’i (shag’al) yo’li	38-sonli umumta’lim maktabi
18	Garasha MFY	Koriz qishlog’i (shag’al) yo’li	77-sonli umumta’lim maktabi
19	Garasha MFY	Garasha qishlog’iga keluvchi (asfalt) yo’l	10-sonli MTT
20	Oqtepa MFY	Yomchi qishlog’i (shag’al) yo’li	22-sonli umumta’lim maktabi
21	Oqtepa MFY	Pastki To’qay qishlog’i (asfalt) yo’li	30-sonli umumta’lim maktabi
22	Oqtepa MFY	O’rtaqishloq qishlog’i (asfalt) yo’li	23-sonli umumta’lim maktabi
23	Oqtepa MFY	“Yangiqishloq-Sayyod-Osmonsoy” xalqa (asfalt) yo’li	6-sonli umumta’lim maktabi
24	Sayyod MFY	“Yangiqishloq-Sayyod-Osmonsoy” xalqa (asfalt) yo’li	29-sonli umumta’lim maktabi
25	Sayyod MFY	Sayyod qishlog’i (shag’al) yo’li	7-sonli umumta’lim maktabi
26	Osmonsoy MFY	“Yangiqishloq-Sayyod-Osmonsoy” xalqa (asfalt) yo’li	2-sonli umumta’lim maktabi
27	Osmonsoy MFY	Osmonsoy qishlog’i (asfalt) yo’li	3-sonli umumta’lim maktabi
28	Nurak MFY	“Qoratosh-Nurak-Qoraxon” qishlog’i (asfalt) yo’li	4-sonli umumta’lim maktabi

29	Nurak MFY	“Qoratosh-Nurak-Qoraxon” qishlog’i (asfalt) yo’li	8-sonli umumta’lim maktabi
30	O’xum MFY	“Yuqori O’xum” qishlog’i (asfalt) yo’li	46 -sonli umumta’lim maktabi
31	O’xum MFY	“Yuqori O’xum” qishlog’i (asfalt) yo’li	14-sonli umumta’lim maktabi
32	Uchquloch MFY	Yuqori Uchquloch qishlog’i yo’li	10 -sonli umumta’lim maktabi
33	Egizbuloq MFY	“Jizzax-Yangiqishloq-qizilcha” avtomobil yo’lidan Egizbuloq aholi punktiga boruvchi yo’l	15 -sonli umumta’lim maktabi